



## ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

# ANDIJON VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



***Dastlabki ma'lumot  
2025- yil yanvar-fevral***

***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel.: 74 228-30-57***

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

## Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar-fevral oyi, foizda)




2025- yil 1- mart holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 4 951 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 100 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 4 851 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

**Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati  
dinamikasi (yanvar-fevral, mlrd so'mda)**



So'nggi 5 yillik (2021- 2025- yillar)da chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2024- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2023- yilning mos davriga nisbatan 110,0 % ni tashkil qildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari,  
oylar kesimida  
(2024- 2025- yillar, foizda)**



2025- yilning yanvar-fevral oylarida o'sish sur'ati 108,6 % ni tashkil qildi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2025- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 3 924,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 108,6 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 324,6 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 108,8%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 3 599,4 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 108,6%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 567,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 116,2 %) tashkil etdi.


**Hududlar bo'yicha chakana savdo hajmi va o'sish sur'atlari**  
(2025- yil yanvar-fevral oylari)

	<b>Jami, mlrd. so'm</b>	<b>2024- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda</b>
<b>Andijon Viloyati</b>	<b>3 924,0</b>	<b>108,6</b>
Andijon sh.	1 103,8	109,1
Xonobod sh.	27,9	111,5
<i>tumanlar</i>		
Oltinko'l	245,8	107,7
Andijon	299,6	107,3
Baliqchi	308,1	106,6
Bo'ston	52,2	106,7
Buloqboshi	89,4	116,6
Jalaquduq	82,2	106,7
Izboskan	114,5	106,3
Ulug'nor	60,7	108,7
Qo'rg'ontepa	151,4	106,8
Asaka	350,7	109,4
Marhamat	135,7	106,4
Shahrixon	372,8	107,3
Paxtaobod	139,0	107,1
Xo'jaobod	201,4	111,5

\* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

2025- yilning yanvar-fevral oylarida 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan viloyatning Buloqboshi tumani (116,6%), Xonobod shahri (111,5%), Xo'jaobod (111,5%) va Asaka (109,4%) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi (Ulushi, foizda)



Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Andijon shahri 28,1 % bilan 1 103,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Xonobod shahri 0,7 % bilan 27,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2024- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.




#### Hajmi, mlrd. so'm

Andijon sh.	1 103,8
Shahrixon	372,8
Asaka	350,7
Baliqchi	308,1
Andijon	299,6
Oltinko'l	245,8
Xo'jaobod	201,4
Qo'rg'ontepa	151,4
Paxtaobod	139,0
Marhamat	135,7
Izbozkan	114,5
Buloqboshi	89,4
Jalaquduq	82,2
Ulug'nor	60,7
Bo'ston	52,2
Xonobod sh.	27,9




## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2025- yilning yanvar-fevral oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 3 599,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 8,6 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 91,7 % ni tashkil etdi.



## Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 8,8 % ga o'sdi va 324,6 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 8,03 % ulushiga to'g'ri keldi.




## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)

Andijon sh.	17,1	82,9
Xonobod sh.	16,4	83,6
Oltinko'l	1,3	98,7
Andijon	6,4	93,6
Baliqchi	4,0	96,0
Bo'ston	4,2	95,8
Buloqboshi	1,2	98,8
Jalaquduq	1,6	98,4
Izboskan	3,5	96,5
Ulug'nor	1,3	98,7
Qo'rg'ontepa	1,0	99,0
Asaka	4,3	95,7
Marhamat	1,0	99,0
Shahrixon	1,7	98,3
Paxtaobod	5,0	95,0
Xo'jaobod	4,3	95,7

 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qo'rg'ontepa (99,0 %), Marhamat (99,0 %) va Buloqboshi (98,7 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 8,3 % ni tashkil etib, eng katta ulush Andijon (17,1 %), Xonobod (16,4 %) shaharlari, Andijon (6,4 %) va Paxtaobod (5,0 %) tumanlarida kuzatildi.



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



## AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda)



Andijon sh.

2 268,4

Xonobod sh.

603,4

Oltinko'1

1 272,0

Andijon

1 035,5

Baliqchi

1 413,3

Bo'ston

606,5

Buloqboshi

578,3

Jalaquduq

410,2

Izboskan

444,2

Ulug'nor

947,6

Qo'rg'ontepa

651,4

Asaka

978,1

Marhamat

721,3

Shahrixon

1 136,9

Paxtaobod


659,8

Xo'jaobod

1 661,6

2025- yilning yanvar-fevral oylarida holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 1 144,8 ming. so'm (2024-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan (106,4 %) ni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Andijon shahri (2 268,4 ming so'm), Xo'jaobod (1 661,6 ming so'm) va Baliqchi (1 413,3 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.






Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar-fevral), foizda



- Dehqon bozorlari



- Chorva bozorlari

**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalaridan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


**Hududlar kesimida uyushmagan savdo hajmi va o'sish sur'atlari  
(2025- yil yanvar-fevral)**

	<b>Jami, mlrd. so'm</b>	<b>2024- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda</b>
<b>Andijon viloyati</b>	<b>567,9</b>	<b>116,2</b>
Andijon sh.	75,2	89,8
Xonobod sh.	0,7	70,3
<i>tumanlar:</i>		
Oltinko'l	11,2	111,3
Andijon	14,7	136,7
Baliqchi	33,8	133,6
Bo'ston	3,3	110,4
Buloqboshi	36,2	224,3
Jalaquduq	17,4	126,2
Izboskan	9,6	109,3
Ulug'nor	19,9	123,3
Qo'rg'ontepa	37,3	103,9
Asaka	85,5	129,9
Marhamat	38,6	107,1
Shahrixon	114,2	109,1
Paxtaobod	40,2	102,6
Xo'jaobod	30,0	162,7


\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda**  
(2025- yil yanvar-fevral)















**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so'm (2025- yil yanvar-fevral)**



Andijon viloyat bo'yicha 2025-yilning yanvar-fevral oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 567,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 116,2% ni tashkil etdi. Shu jumladan, 4 bozor va 4 bozor (chorva) (choraklik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 201,1 mlrd so'mni (118,1%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 366,8 mlrd so'mni tashkil etdi (157,7 %).












2025-yilning yanvar-fevral oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 201,1 mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (83,4 mlrd so'm) to'g'ri keldi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi**

<p><b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b></p> <p>83,4 mlrd so'm</p>  <p>41,5 %</p>	<p><b>Non va non mahsulotlari</b></p> <p>38,1 mlrd so'm</p>  <p>19,0 %</p>	<p><b>Don mahsulotlari (mash, loviya, guruch va boshqalar)</b></p> <p>20,2 mlrd so'm</p>  <p>10,1 %</p>
<p><b>Tovuq go'shti</b></p> <p>7,2 mlrd so'm</p>  <p>3,6 %</p>	<p><b>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</b></p> <p>10,9 mlrd so'm</p>  <p>5,4 %</p>	<p><b>Tuxum</b></p> <p>5,5 mlrd so'm</p>  <p>2,7 %</p>
<p><b>Ziravorlar</b></p> <p>9,1 mlrd so'm</p>  <p>4,5 %</p>	<p><b>Sut va sut mahsulotlari</b></p> <p>7,6 mlrd so'm</p>  <p>3,6 %</p>	<p><b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b></p> <p>1,5 mlrd so'm</p>  <p>0,7 %</p>
<p><b>Tuzlamalar</b></p> <p>6,6 mlrd so'm</p>  <p>3,3 %</p>	<p><b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b></p> <p>2,7 mlrd so'm</p>  <p>1,4 %</p>	<p><b>Nooziq-ovqat tovarlar</b></p> <p>8,2 mlrd so'm</p>  <p>4,1 %</p>

2025- yilning yanvar-fevral oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 366,8 mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 313,2 mlrd so'm, qo'y va echkilar – 48,6 mlrd. so'mni, otlar – 3,1 mlrd so'mni, parrandalar – 1,9 mlrd so'mni tashkil qildi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari va parrandalar savdosi hajmi va ulushi**

<p><b>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</b></p> <p><b>186,1 mlrd so'm</b></p>  <p>50,7 %</p>	<p><b>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>51,5 mlrd so'm</b></p>  <p>14,0 %</p>	<p><b>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>75,6 mlrd so'm</b></p>  <p>20,6 %</p>
<p><b>Qo'ylar</b></p> <p><b>47,5 mlrd so'm</b></p>  <p>12,9 %</p>	<p><b>Otlar</b></p> <p><b>3,1 mlrd so'm</b></p>  <p>0,9 %</p>	<p><b>Echkilar</b></p> <p><b>1,1 mlrd so'm</b></p>  <p>0,3 %</p>
<p><b>Kurka, o'rdak, g'oz</b></p> <p><b>1,3 mlrd so'm</b></p>  <p>0,3 %</p>	<p><b>Tovuqlar</b></p> <p><b>0,4 mlrd so'm</b></p>  <p>0,1 %</p>	<p><b>Quyونlar</b></p> <p><b>0,1 mlrd so'm</b></p>  <p>0,04 %</p>
<p><b>Qushlar</b></p> <p><b>0,07 mlrd so'm</b></p>  <p>0,02 %</p>		

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2025- yil 1- mart holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 167 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 165 tani tashkil qildi.

### Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar-fevral)

	Jami mlrd. so'm	2024- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>1 853,3</b>	<b>111,3</b>
Andijon sh.	34,2	109,0
Xonobod sh.	0,7	107,5
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	3,4	107,2
Andijon	5,4	107,0
Baliqchi	0,9	108,0
Bo'ston	0,4	106,0
Buloqboshi	0,7	108,1
Jalaquduq	1,0	108,3
Izboskan	2,3	112,8
Ulug'nor	1,1	107,1
Qo'rg'ontepa	3,2	107,6
Asaka	3,1	106,6
Marhamat	1,7	106,3
Shahrixon	12,6	160,0
Paxtaobod	2,4	106,9
Xo'jaobod	1,5	106,7

\* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

2025- yilning yanvar-fevral oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 1 853,3 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 111,3 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 81,9 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.


## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

(jismoniy shaxslar hisobga olinmagan holda)

	Hajmi, mlrd. so‘m	Ulushi, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>732,6</b>	<b>100,0</b>
Andijon sh.	504,1	68,8
Xonobod sh.	0,1	0,02
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko‘l	66,9	9,1
Andijon	20,9	2,8
Baliqchi	3,2	0,4
Bo‘ston	0,13	0,02
Buloqboshi	0,2	0,02
Jalaquduq	0,4	0,1
Izboskan	1,7	0,2
Ulug‘nor	0,1	0,02
Qo‘rg‘ontepa	1,0	0,1
Asaka	70,5	9,6
Marhamat	0,9	0,1
Shahrixon	2,6	0,4
Paxtaobod	0,2	0,03
Xo‘jaobod	59,8	8,2


Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Andijon shahri (504,1 mlrd so‘m), Asaka (70,5 mlrd so‘m) va Oltinko‘l (66,9 mlrd so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd so'm)



2025- yilning yanvar-fevral oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 732,6 mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17,0 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 300,7 mlrd so'm (o'sish sur'ati – 125,4 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 431,9 mlrd so'm (o'sish sur'ati – 111,7 %)ni tashkil qildi.


## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'atlari, foizda





**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’i nazar qiymati.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2025- yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 792,7 mlrd so‘mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 10,8 % ga o‘ydi.

## Savdo aylanmasi va ulushi

3,3 %

58,3 mlrd so‘m

**Yirik korxonalar**

96,7 %

1 734,4 mlrd so‘m

**Mikrofirma va kichik korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 1 734,4 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 111,8 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 96,7 % ni tashkil qildi.

## Ulgurji savdo aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar-fevral)

	Jami mlrd. so'm	2024- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>1 792,7</b>	<b>110,8</b>
Andijon sh.	628,1	112,1
Xonobod sh.	18,2	126,7
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	42,7	110,3
Andijon	109,7	111,5
Baliqchi	111,2	111,2
Bo'ston	10,6	107,9
Buloqbohi	22,2	108,2
Jalaquduq	11,1	108,1
Izboskan	56,7	108,8
Ulug'nor	20,7	108,3
Qo'rg'ontepa	36,7	108,2
Asaka	46,1	117,1
Marhamat	14,2	59,7
Shahrixon	150,0	108,4
Paxtaobod	22,8	108,0
Xo'jaobod	34,9	108,8

\* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

2025- yil 1-mart holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 496 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 31 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 465 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Xonobod (90,0 m.) shahri, Andijon (1,7 m.) tumanlarida kuzatildi.